



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI



PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA TEXNOLOGIK TA'LIM KAFEDRASI

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM MAZMUNINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI **MUAMMO VA YECHIMLAR**

RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY ANJUMANI
2022-YIL, 25-APREL



**BUXORO DAVLAT
UNIVERSITETINING
PEDAGOGIKA INSTITUTI**



*PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA TEXNOLOGIK TA'LIM
KAFEDRASI*

**UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM
MAZMUNINI YANADA
TAKOMILLASHTIRISH
ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA
YECHIMLAR**

RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY ANJUMANI

2022-yil, 25-aprel

**BUXORO - 2022
«DURDONA» NASHRIYOTI**

<https://buxdu.uz>

Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish istiqbollari: muammo va yechimlar [Matn]: maqola va tezislar to'plami. 772 bet.

MAS'UL MUHARRIR:

Izbullayeva G.V. – p.f.f.d. (PhD), dotsent

TAQRIZCHILAR:

Abdullayev M.J. – Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrası mudiri, p.f.f.d.(PhD), professor.

Sharipov A.Z. – Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, f.f.d., dotsent.

TO'POVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

Umedjanova M.L. – o'qituvchi

Shernazarov Z.Z. – o'qituvchi

Sobirova M.R. – BuxDUPI Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti

Ushbu ilmiy-nazariy anjumanning ilmiy maqola va tezislari to'plamida ilm-fan va ta'lim tizimidagi keng ko'lamli islohotlar, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish istiqbollari: muammo va yechimlar borasida fikr va tajriba almashish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish, tadqiq etishga qaratilgan takliflarni qamrab oluvchi ilmiy, nazariy va uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamda kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar, bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqishimiz bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin. Menimcha, har bir o'qituvchi o'z darslarini shunday rejalashtirishga qodirki, kompyuter yordamidan foydalanish eng samarali, dolzarb va qiziqarli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012
2. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.
3. Ikromov A. A. Improvement of action based games for young learners // Theoretical & applied science. – 2020. – №. 2. – c. 170-173.
4. Ikromov A. A. THE INFLUENCE OF GAMES ON THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL AND PHYSICAL ACTIVITY FOR PRESCHOOL CHILDREN // Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 3. – №. 4. – C. 324-328.
5. Aminovich I. A. Mastering of Motion (Action Based) Games for Primary School Pupils by Using Information and Communication Technologies //International Journal on Integrated Education. – T. 3. – №. 3. – C. 5-8.
6. Numondjonovna D. G. The use of interactive methods in forming the ecological worldview of preschool children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/430>
7. Davranova G. COLLABORATION BETWEEN KINDERGARTEN AND FAMILY //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 1. – №. 1.
8. Davranova G. N. The importance of using multimedia to expand children's worldwide during the activities. AJMR: Asian Journal of Multidimensional Research Vol 10, Issue 7, July, 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.699. 28-31-b. <https://www.tarj.in>
9. Davranova Gulbahor Numondjonovna. Advantages of Using Modern Information Technologies in Teaching Russian Language for Primary School Students. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022.

UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHI-YOSHLARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING GUMANITAR TEXNOLOGIYALARI

B.Q. Xodjayev

Buxoro davlat universiteti dotsenti, P.f.n,

M.N. Amonov

*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi.*

Annotatsiya. Maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning gumanitar texnologiyalari to'g'risida so'z yuritilib, gumanitar texnologiyalarning mazmun-mohiyati nazariy jihatdan yoritilgan. Uning uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchi – yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi pedagogik xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, jarayon, fuqarolik, pozitsiya, o'quvchi, yoshlar, gumanitar, texnologiya, oila, ota-ona, murabbiylar.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida mustaqil fikrlaydigan, erkin, ijodkor, tashabbuskor, tadbirkor, yoshlarni tarbiyalash asosiy maqsad qilib belgilangan. Bu maqsadni amalga oshirish uchun hozirgi ta'lim va tarbiya jarayo'nini xorijiy tajribalar va mahalliy xususiyatlarga asoslanib yangicha yo'ndashish talab etiladi. Bu yo'ndashishning eng muhim yo'nalishi tarbiya jarayoniga gumanitar texnologiyalarni tadbiq etish orqali o'quvchi yoshlar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdir.

Har tomonlama barkamol shaxs tizimida o'quvchi-yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Zero, o'quvchi yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi deganda shu ona vatan meniki, unda ro'y beradigan yutuq va o'zgarishlar ham meniki, shu sabab tezkor va shiddatli hayot yo'lidagi to'siqlarni yengish, yurt taraqqiyotini tezlashtirish uchun men daxldor va masu'lman degan istak-intilish mujassamlashgan.

Darhaqiqat, O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 dekabr dagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ta'kidlanganidek, "Yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim

fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish” [1,2] deb ta’kidlanishi yuqorida qayd etib o’tilgan maqsadning hosilasi hisoblanadi. Haqiqatdan ham o’quvchi-yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik kabi fuqarolik pozitsiyasining muhim fazilati hisoblanib, uning shakllanishi maktab ostonosidan boshlanadi. Bu muammoni hal etishda ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha tarbiyani gumanitar texnologiyalar asosida qurish ahamiyatli ekanligini tajriba ko’rsatmoqda. Chunonchi gumanitar pedagogika hozirgi davrda tarbiyani insoniy munosabatlarga tayanib tashkil etishni nazarga tutadi va o’quvchi yoshlar xususiyatlarini, qadr-qimmatini, erki va sha’nini, huquqi va faoliyatini umumbashariy qatriyat asosida e’rtirof etadi. Shu bois gumanitar tarbiya o’quvchi yoshlarning o’quv-tarbiya jarayonida o’z shaxsini ongli, faol, mas’uliyat va burch darajasida rivojlantirib, imkoniyatlarini to’la amalga oshirish sharoitini yuzaga keltiradi.

Muammoni zamonaviy ta’lim konsepsiyasi doirasida tadqiq qilgan N.Nishonova ta’limning gumanitar texnologiyalarini quyidagicha sharhlaydi, “Ta’limning gumanitar texnologiyalari bu har bir tarbiyalanuvchinig qadr-qimmatini hurmat qilish, hayotda, mehnatda va o’qitish jarayonida uning huquqiy, erki va salohiyatini namoyon etish va imkoniyati darajasida rivojlanish uchun sharoit yaratishda qo’llanadigan eng ilg’or shakl, metod va vositalar majmuidir”[3,48]. Shu nuqtai –nazardan o’quvchi yoshlar fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning gumanitar texnologiyalari o’quvchi-axloqi, huquqiy manfaatlarini, qadr-qimmatini va erki mustaqqilligini siyosiy-huquqiy jihatdan himoyalaniishi va qonuniy manfaatlarinig davlat tomonidan qo’llab quvatlanishi natijasida o’z imkoniyatlarini to’la namoyon etishga qaratilgan faolliyatinig shakl, metod va vositalarinig yig’indisidir. Shunga binoan o’quvchi-yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda o’quv-tarbiya jarayonidagi faolliyatni insonparvarlik prinsipi asosida tashkillashtirishni taqazo etadi.

Bunda faolliyat o’quvchi-yoshlarning yosh davrlari va individual-ruhiy xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirib borish maqsadga erishishni jadallashtiradi.

Shu o’rinda e’rtirof etib o’tish joizki, ilg’or pedagogik nazariyada tarbiyaning gumanistik yo’nalish kasb etishi va uzluksiz ta’lim tizimida o’quvchi yoshlarning shaxsini jumladan, fuqarolik pozitsiyasini

shakllantirishda gumanitar texnologiyalarni qo'llash eng maqbul va innovatsion texnologiya sifatida qabul qilinib u shu kunning dolzarb muammosi sifatida talqin etiladi. Shunga binoan tadqiqotchi Gulnora Ibragimova ta'rifiga binoan, "Ta'lim-tarbiyaning gumanitar texnologiyasi tushunchasi tarbiyaning kafolatlangan maqsadlariga erishish quroli, oldindan loyhalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimi"[4,118]. Bu tizim hozirgi sharoitda o'quvchi –yoshlar shaxsiga insonparvarlik nuqtai-nazaridan yondashilib uning barcha narsadan ulug' va aziz ekanligi hamda moddiy va ma'naviy boylik shu yoshlar uchun dasturul amal tamoyiliga asoslanishiga da'vat etadi.

Chunonchi 2022 yil "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla" yili deb e'lon qilinishi bejiz emas. Bu yilda har bir o'quvchi-yoshning xohish-irodalari, orzu-ishonchlari, maqsad-muddaolari, to'la qadrlanadi va qo'llab-quvvatlandi. Bunga davlat ham, jamiyat ham, ta'lim-tarbiya maskanlari ham muttasadi sifatida ishtirok etadilar. Yuqorida qayd etganimizdek mamalakatda demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida o'quvchi-yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda gumanitar texnologiyalardan foydalanishni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga erishishni osonlashtiradi.

Qayd etish lozimki, o'quvchi–yoshlarda fuqorolik pozitsiyasini shakllantirishda dastlabki qadam oilada qo'yiladi bunda ota-onalar, qarindosh-urug'lar inmonparvarlik nuqtainazaridan yondashib, ularda oilaga muhabbat, ota-onaga hurmat, dastlabki mehnat faolliyatiga muhabbat his tuyg'usini shakllantirishlari lozim bo'ladi. Buning uchun xalq og'zaki ijodidan o'rinli foydalanish, OAV materiallarini ijodiy o'rganishni yo'lga qo'yish, bolalarda fuqarolik pozitsiyasining muhim tarkibiy qismlari mehr-muhabbat, sabr-toqat, fahm-farosat va ona yurtga muhabbatni tarbiyalaydi.

Oilada boshlangan fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasi maktabda o'qish jarayonida rivojlantirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi va fuqarolik pozitsiyasining mazmun-mohiyatini teranroq anglaydigan bo'ladilar. Bu hol professional va oliy ta'limda rivojlantirilishi nazarga tutilmog'i kerak. Chunki, bu davr o'quvchi yoshlari:

Шаһмақом тарихига бир назар. (III.III. Яхёева).....	426
Musiqa darslarida interfaol usullardan samarali foydalanish. (J.T. Yarashev, D.O'. Murotova)	430
Musiqa darslarini tashkil etishda o'qituvchining pedagogik mahorati. (D.O'. Murotova)	434
Musiqa darslari yordamida o'quvchilarda ong, milliy tafakkurni shakllantirishning imkoniyatlari, shakl va uslublari. (F.G. Nurullayev, N.A. Hazratova).....	437
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashda oilaning o'rni. (D.M. Qodirova)	445
Zamonaviy o'qituvchi obrazi va axborot texnologiyalarining uyg'unlashuvi. (G.N. Davranova)	450
Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning gumanitar texnologiyalari. (B.Q. Xodjayev, M.N. Amonov).....	455
Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogda kasbiy kompetentlik va kompetensiyalar shakllanishining xususiyatlari. (R.R. Nematova).....	458
Профессиональная компетентность будущих медицинских сестер. (M.И. Ламунов)	461
Umumta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining roli. (A.R. Raximov)	466
Lexical and grammatical skills in teaching french to primary school students. (N. Umirzakova)	471
Pragmatika va nutq aktlari. (Sh. Sharopov, Y.Saidova).....	473
O'quvchilarning kiyimlarni loyihalashga oid kompetentsiyalarini rivojlantirishda zamonaviy texnik vositalardan foydalanish. (N.M. Hamdamova, M.R. Shoyimova).....	484
Fellarning analitik shakllarining o'rganilish tarixi. (Nurova F.K).....	488
Bo'lajak o'qituvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish va uning metodikasini tanlash. (N.Qurbonova)	495
"Texnologiya" fanini o'qitishda samaradorlikka erishish omillari. (A. Ibodov).....	502
Interfaol metodlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlari. (O.O. Xalloqova)	505